



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Qashqadaryoning so‘lim Kitob tumani, Xo‘jailmkoni qishlog‘ida bir qiz dunyoga keldi. Bu qizning ismi *Ilyasova Asila Anvar qizi* edi. Bolaligidan o‘tkir zehni, izlanishga chanqoqligi va faol tabiatini bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. U ilk saboqni qishlog‘idagi 44-umumiyligda o‘rtalim maktabida oldi va 2024-yilda uni muvaffaqiyatli yakunladi. Maktab davrlari Asila uchun faqatgina darslar emas, balki izlanish va yutuqlar maktabi bo‘ldi. U turli fan olimpiadalarida tuman bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi, harbiy-sport musobaqalarida esa viloyat bosqichida bayroq ko‘tardi. Shijoati va mehnatsevarligi uni ko‘plab tanlovlarda porlashi uchun qanot bo‘ldi. Bir necha bor “Zulfiyaxonim qizlari” ko‘rik-tanlovida ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni zabt etdi. Asilaning qalamiga mansub nozik tuyg‘ular va o‘ychan satrlar tez orada o‘z o‘quvchilarini topdi. Uning she’rlari “Mo‘jizaviy dunyo” va “Inson manfaati” gazetalari sahifalarida chop etildi. Bundan tashqari, Kitob tumani yosh ijodkorlari tomonidan nashr qilingan she’riy to‘plamlarda ham uning asarlari joy oldi. Ijodga mehr, so‘zga ehtirom uni yanada kuchliroq qanotlantirdi. Shu bilan birga, Asila nafaqat yozdi, balki jamiyat hayotida ham faol ishtirok etdi. Qashqadaryo yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan adabiy tadbirlarda qatnashib, turli sertifikatlar bilan taqdirlandi. Orzular sari intilishlari uni 2024-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti tarix fakultetiga olib keldi. Hozirda u ushbu fakultetda tahsil olib, bilim izlashdan tashqari, intellektual loyihamalar bo‘yicha koordinatorlik faoliyatini ham olib bormoqda. Asilaning hikoyasi— bu izlanish, matonat va orzular sari dadil odimlarning hikoyasi. Uning qalami hali ko‘p sahifalarni to‘ldirishi, satrlari ko‘plab yuraklarga yetib borishi shubhasizdir.

### DUNYO

Nega beshavqatdir beshavqat dunyo  
Hayot kechirardik sinovsiz go‘yo  
Umrimiz balki tush balki bir ro‘yo  
Har kim dardin to’ksa to’ladi daryo.  
Bunda yashar edi turfa taqdirlar  
Aybdorlar-aybsizlar haq-nohaqdirlar  
Hayotdan qoniqmay yasharkan sherlar  
Bu dunyoda o‘lim albat haq derlar.  
Kim to‘kis yashagan siz menga aytинг  
Yomonlar yovuzlik yo‘lidan qayting  
Qo’shiq emas balki salovat aytинг  
Ongingizni bilim ila boyiting.  
Boylik deb doimo yelding yugurding  
Yomondebnomolishga ham ulgurding





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Gohi g'amda gohi shodlanib yurding  
Bu yorug' dunyoda orzular surding .  
Tinchlikni moli ko'p odamdan so'ra  
Ollohdan boylikmas sog'likni tila  
Ashula yodlama yod olgin sura  
Namozda pul emas jannatni tila

### **Davrning ovozasi**

Umrimiz òtmoqda sezmay yuribmiz  
Faqat soxtalikka berilib kettik  
Dunyo gunohidan bino quribmiz  
Qalbimiz uzra kòp yolgonlar bittik  
Oxirat tobidan bebahra qolib  
Vijdon azobida umrbod yondik  
Òzganing kònglini pul uchun olib  
Haqiqat sòz bòlsa pulni deb tondik  
Insonlarga qarab hayvonlar hayron  
Kim iymonlikan deb shayton ham sarson  
Dunyo moli uchun kòngillar vayron  
Yaxshilik qilishga topilmas bir on  
Kimda diyonat bor, kimda insof bor  
Namozsiz insonga shu keng dunyo tor  
Garchand kòplarida yòqdir nomus or  
Lekin hammamizda soxtalik bisyor  
Alloh farz qilubdir besh vaqt namozni  
Muhayyo aylabdi bahoru-yozni  
Nozil aylagandir muqaddas qur'on  
Bilingki omonat tanadagi jon  
Gunoh ishlarimiz yigishtirib biz  
Allohnинг farzlarin ado etaylik  
Faqat yaxshilik chun qoldiraylik iz  
Jannatning boǵiga birga ketaylik.  
Òzganing kòngliga ozor bermasdan  
Shirin sòzlar ila xushnud etaylik  
Yomonlik kòchasiga kirmasdan  
Ezgu niyatimiz qalbga bitaylik.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'ÖYALAR



Pulni ham unuting sarobdir bari  
 Qolib ketolmaysiz dunyoyingizda  
 Hammamizðlamiz ketamiz nari  
 Faqat iymon sòrang duoyingizda.

### **ARMONIM2**

Òtayabdi umrim seni kutaman  
 Ichimda alamlar qulaydi har on  
 Har zumqalbim uzra dardni yutaman  
 Har kuni qaytadan òladi bu jon.  
 Faqat seni soðinib izlar kòzlarim  
 Ammotopaolmayyurak qiynalar  
 Òzimga òtmaydi hatto sözlarim  
 Qalbim gòyo dardni har kun qiymalar.  
 Dardimni darmoni bormi ayt òzing  
 Nechun tashlab ketding yiroqlardasan  
 Mayli kòp gapirma yetar bir sözing  
 Lekin kònglim uzra firoqlardasan.  
 Darmoni yòq dardlarim davosi òzing  
 Balki kelarsan yor dardim olarsan  
 Xotiramdan òchmas moviyrang kòzing  
 Abadiy qalbimda birga qolarsan.

### **ARMONLIMUHABBAT**

Yòlning òrtasida turibman nogoh  
 Qalbim qiynaladi yurak yonmoqda  
 Òzim hamhayronman bu qanday gunoh  
 Yurak muhabbatdan nechun tonmoqda.  
 Sevar edim men ham kòzi kòr bòlib  
 Tikanin kòrmasdim gullagan gulni  
 Bugun yiğlar qalbim azobga tòlib  
 Bu dunyoda faqat qadri bor pulni.  
 Kòzimga hech narsa kòrinmas edi  
 Hatto uyqumda ham aytardim isming  
 Qara shu ilk sevgim aqlimni yedi

Garchand hayolimdan ketmaydi jisming.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Goyo sendan özga bu dunyoda yòq  
Faqat sening uchun yashar edim men  
Aytgan har sòzlaring misoli bir òq  
Yuragimda qolding faqatgina sen.

